

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.02.08. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

USMANOVA MAHLIYO IBADULLAYEVNA

**TRITIKALE (*TRITICOSECALE*) NAVLARINI QURG‘OQCHILIKKA
CHIDAMLILIGINING FIZIOLOGIK ASOSLARI**

03.00.07 – O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Usmanova Mahliyo Ibadullayevna

Tritikale (*triticosecale*) navlarini qurg‘oqchilikka chidamliligining fiziologik asoslari..... 3

Усманова Махлиё Ибадуллаевна

Физиологические основы засухоустойчивости сортов тритикале (*triticosecale*) 21

Usmanova Makhliyo Ibadullaevna

Physiological bases of drought resistance of triticale varieties (*triticosecale*) 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 44

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.02.08. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

USMANOVA MAHLIYO IBADULLAYEVNA

**TRITIKALE (*TRITICOSECALE*) NAVLARINI QURG‘OQCHILIKKA
CHIDAMLILIGINING FIZIOLOGIK ASOSLARI**

03.00.07 – O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/B832 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xadjayev Djurakul

biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Djabbarov Ibrohim Shodmanovich

biologiya fanlari doktori, professor

Xalilov Nasriddin

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.02.08 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «14» mart kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti binosi majlislar zali. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks (+99866) 239-11-51, E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (18 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «28» fevral kuni tarqatildi.
(2025-yil «28» fevral № 17 raqamli reyestr bayonnomasi)



T.F.Rajabov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d.

M.S.Kuziyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.d. (PhD), dotsent

X.Q.Haydarov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda aholi sonining jadal ko'payishi ularning global oziq-ovqatga bo'lgan talabining oshishiga olib kelmoqda. Natijada o'simlik mahsulotlaridan foydalanishga bo'lgan talab sezilarli darajada ortib bormoqda. Shu jihatdan, qurg'oqchil va suv tanqis hududlarda mahsuldorlik va ozuqaviylik salohiyati yuqori bo'lgan yangi o'simlik turlarining fiziologik hamda biokimyoviy xususiyatlarini baholash va amaliyotiga joriy qilishga alohida e'tibor berilmagan. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarga eng muhim ustuvor vazifalarning yechimi sifatida qaralmoqda. Shunga ko'ra, qishloq xo'jaligida sifatli va kamxarajatli, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Jahonda global iqlim o'zgarishi natijasida agrosenozlarda o'simlik turlarining qurg'oqchilikka chidamlilik xususiyatlari, namtaqchil tuproqlarda donli o'simliklarning o'sish va rivojlanishi, ularning morfobiologik, ekologik, fiziologik, fitokimyoviy xususiyatlarini aniqlash hamda qurg'oqchilikka chidamlilik xususiyatlarini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, turli stress omillarga chidamlilik xususiyatlari bo'yicha noyob bo'lgan, istiqbolli boshqali o'simlik turlarining o'sish sharoitlariga moslashish xususiyatlarini oshirish, o'sishi va rivojlanishi, turli vegetatsiyalar davrining jadalligi, donning kimyoviy tarkibi, suv tanqis tuproqlardagi hosildorlik ko'rsatgichlarini oshirish, o'simlikning urug'chilik bazasini yaratish, turli ekologik sharoitlarda ko'paytirish va yetishtirish, qurg'oqchilikka chidamli istiqbolli navlarni ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz tuproq-iqlim sharoitida tritikaleni yetishtirish bo'yicha fiziologik va agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish, qurg'oqchilikka chidamli navlarni yetishtirishning biofiziologik asoslarini ishlab chiqish, stress omillarga moslashgan navlarini aniqlash, sho'rlangan va qurg'oqchil tuproqli sharoitlarda o'sish va rivojlanish jadalligining mo'tadilligini ta'minlashning agrotexnik tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga katta e'tibor qaratilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Bu borada, jumladan, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "... ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish" bo'yicha alohida vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash, noqulay omillarga chidamli bo'lgan yangi o'simlik navlarini o'rganish va amaliyotga joriy qilish usullarini ilmiy asoslash orqali hosildorlikni oshirishning samarali usullarini ishlab chiqish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi" Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.

«Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi» farmoni, 2019-yilning 18-martdagi PQ-4243-son «Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlariga muvofiq mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V.“Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tritikalening yetishtirish agrotexnologiyasi, seleksiyasi va urug‘chilik sohasida xorijiy va MDH davlatlarda bir guruh olimlar P.Gupta (1982), M.Mergoum (2004), A.Blum (2014), R.Agil (2014), E.Arseniuk (2015), V.Y.Kovtunenko (2019) tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. MDH mamlakatlarida A.I.Grabovets (2000), N.V.Rogojkina (2006), N.N.Zezin (2010), S.A.Gorchin (2012), T.A.Goryanina (2017), N.P.Shishlova (2018), B.B.Boronchixin (2019) tritikale navlarining qishga chidamliligi, nonboblik ko‘rsatkichlari, seleksion materiallarning filogenetik jihatdan barqarorligini oshirish, ularni turli abiotik omillarga chidamliligi o‘rganilib, turli stress omillarga bardoshli, hosildorligi yuqori navlar ishlab chiqarishga joriy qilingan.

Mamlakatimizda sug‘oriladigan maydonlarda kuzgi tritikaleni yem-xashak ekini sifatida yetishtirish, ekish muddati, ekish me‘yori va o‘g‘itlash me‘yori bo‘yicha I.V.Massino (1989) hamda lalmi maydonlarda ekish va barqaror hosil olish uchun ertapishar seleksion materiallar yaratish yuzasidan M.Xayitboyev (2019), K.T.Isokov (2020), tritikale navlarining sho‘rga chidamliligini baholash bo‘yicha J.Doschanov (2021) va boshqalar tomonidan mazkur ekin katta qiziqish bilan o‘rganib kelinmoqda.

Biroq so‘nggi yillarda olimlar tomonidan tritikale navlarini respublikamizning tuproq-iqlim sharoitida o‘sim rivojlanishi, o‘simlikda kechadigan fiziologik jarayonlar, urug‘larning fiziologik xususiyatlari va qurg‘oqchilikka chidamlilik bilan bog‘lagan holda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Tritikale navlarining qurg‘oqchilikka chidamliligining fiziologik asoslari va hosildorligini oshirish” №112 (2023-2024) xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Samarqand viloyati sharoitida yetishtirilayotgan tritikale navlarining qurg‘oqchil iqlim sharoitlariga chidamliligining fiziologik asoslarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:
tritikale navlari urug‘larining fiziologik xususiyatlarini aniqlash;
tritikale navlarining suv almashinuv xususiyatlari va qurg‘oqchilikka chidamliligini aniqlash;

mo'tadil va qurg'oqchil tuproqlarda tritikale navlarining fotosintetik faoliyatini ochib berish;

Samarqand viloyati sharoitida yetishtirilgan tritikale navlarining mahsuldorlik ko'rsatkichlari va hosildorligini aniqlash;

qurg'oqchilikka chidamli va hosildor tritikale navlarini mo'tadil va qurg'oqchil tuproqlarda ekish va yetishtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tritikalening yuqori hosildor Farxod, Odissey, Valentin, Svat va Tixon navlari olingan.

Tadqiqotning predmeti tritikale navlarining, o'sishi, rivojlanishi, qurg'oqchilikka chidamliligining fiziologik asoslari va don hosili hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Laboratoriya, morfologik, fenologik, fiziologik, biokimyoviy va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyati sharoitida yetishtirilgan tritikale navlari urug'larining unish quvvati va unuvchanligiga urug'larining tinim davri, harorat, qurg'oqchilik va ekish chuqurligining ta'siri aniqlangan;

Samarqand viloyati sharoitida tritikale barglaridagi suv miqdori, suvni saqlash xususiyati, suv tanqisligi, transpiratsiya jadalligining nav xususiyatlariga bog'liqligi ochib berilgan;

qurg'oqchil sharoitda tritikale navlarining barg sathi, fotosintez so'f mahsuldorligi, quruq modda miqdori va barglardagi α , β xlorofill pigmentlarining kamayishi, karotinoidlar esa ortib borishi aniqlangan;

qurg'oqchil sharoitlarda Odissey va Tixon navlarining rivojlanishi jadalligi, mahsuldorlik ko'rsatkichlari va yuqori don hosildorligining ortishi ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tritikale navlari urug'larining fiziologik xususiyatlari asosida unish quvvati, unuvchanligi va ekish chuqurligi aniqlangan;

tritikale navlarining o'sishi, rivojlanishi, vegetatsiya davrining davomiyligiga mo'tadil va qurg'oqchil sharoitlarning ta'siri ilmiy asoslangan;

tritikale navlarining suv almashinuv xususiyatlari va fotosintetik ko'rsatkichlari mo'tadil va qurg'oqchil sharoitlarga bog'liq holda o'zgarishi aniqlangan;

mo'tadil va qurg'oqchil sharoitlarda tritikale navlarining yuqori hosildorligini belgilovhci fiziologik xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'tkazilgan ko'p yillik dala tajribalarning metodik jihatdan to'g'ri o'tkazilganligi va aprotatsiya komissiyalari tomonidan yuqori baholanganligi, olingan natijalarning nazariy ma'lumotlar bilan tasdiqlanganligi, qiyosiy tahlili, ilmiy tadqiqot natijalarining respublika, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamasi, yetakchi mahalliy ilmiy jurnallarda va impakt-faktori yuqori bo'lgan xorijiy jurnallarda chop etilgani, Samarqand viloyati tuproq iqlim sharoitlariga mos tritikale navlarining tanlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tritikale nav namunalarining qurg'oqchilikka chidamliligini va tuproqdagi suv tanqisligiga moslashuvining morfofiziologik xususiyatlari, donning

kimyoviy tarkibi, tritikale navlarini mamlakatimizning mo‘tadil va qurg‘oqchil sharoitlarida yetishtirishning fiziologik xususiyatlari ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tritikale navlarini mo‘tadil va qurg‘oqchil sharoitlarda yetishtirishning fiziologik asoslari, yuqori hosil olish imkoniyatlari ko‘rsatib berilganligi, Samarqand viloyati sharoitida qurg‘oqchilikka chidamli tritikalening “Odissey” va “Tixon” navlarini tanlanganligi va ishlab chiqarishga joriy qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tritikale (*triticosecale*) navlarini qurg‘oqchilikka chidamliligining fiziologik asoslari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tritikalening navlarini qurg‘oqchil tuproqlarda yetishtirishda suv almashinuv xususiyatlari, barglardagi suv miqdori, transpiratsiya jadalligi, suv tanqisligi, suvni saqlash qobiliyati, turli nav urug‘larini ekish chuqurligi, tritikalening urug‘larining tinim davri hamda urug‘larning unuvchanlik xususiyatlari Samarqand viloyati Payariq tumanidagi “Porloq agro dalasi servis”, “Egamberdiyev Yusuf zamini” va “Shohjahon Dildora agro” fermer xo‘jaligi faoliyatiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 05/05-04-586-son ma‘lumotnomasi). Natijada, qurg‘oqchilikka chidamli tritikale navlaridan qurg‘oqchil sharoitlarda gektaridan 62,7-69,5 sentnerdan hosil yetishtirishga erishilgan.

Tritikale navlarini mo‘tadil hamda qurg‘oqchil tuproqlarda o‘shish va rivojlanish xususiyatlari, navlarning mahsuldorlik ko‘rsatkichlarining muhitga va navlarning fiziologik xossalari bog‘liqligi hamda mo‘tadil sharoitda tritikalening Odissey va Valentin navlarining yuqori hosildorligi, navlarning o‘ziga xos fotosintetik faoliyati, mahsuldorligi, urug‘larning ekish chuqurligi, urug‘larining unish quvvati Samarqand viloyati Jomboy tumanidagi “Laylo Tursunova yerlari” va “Dostonjon hosili” fermer xo‘jaligi faoliyatiga joriy qilingan. (O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 05/05-04-586-son ma‘lumotnomasi). Natijada, fermer xo‘jaliklaridagi sug‘oriladigan maydonlarda tritikale navlaridan gektariga o‘rtacha 80,6-98,6 sentnerdan hosil yetishtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati,

muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari asoslangan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilishi va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tritikalening tarqalishi, fiziologik xususiyatlari va yetishtirish bo'yicha ilmiy ishlar tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo'yicha respublika, MDH va xorijiy davlatlar olimlarining o'tkazilgan ilmiy izlanishlari, xususan, tritikalening kelib chiqishi hamda tarqalishi, navlarining fiziologik, biokimyoviy xususiyatlari va yetishtirish bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar bo'yicha olimlarning ilmiy izlanishlari sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot o'tkazish sharoitlari, obyektlari va uslublari**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot sharoitlari, obyektlari, tajribalarni o'tkazish joyi, tuproq va iqlim sharoitlari, tadqiqotlarni amalga oshirish bo'yicha qo'llanilgan uslublar bayoni keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tritikale navlari urug'larining fiziologik xususiyatlari, o'sish va rivojlanishi**" deb nomlangan uchinchi bobida urug'larning laboratoriya va dala unuvchanligi, urug'larning unuvchanligiga qurg'oqchilikning ta'siri, urug'larning unuvchanligiga tinim davrining ta'siri, tritikale navlarining o'sish va rivojlanish davomiyligi baholash bo'yicha olingan ma'lumotlar hamda ularning tahlili va bobga doir xulosalar keltirilgan.

Olib borilgan tajriba ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, 15⁰C haroratda unuvchanlik yuqori bo'lsada, unib chiqish vaqtining uzoq davom etishi (8-10 kunga) kuzatildi. Tritikale navlarining laboratoriya sharoitida unib chiqishi uchun optimal harorat 20⁰C ekanligi ilmiy asoslandi. Haroratning 25⁰C dan yuqori bo'lishi unuvchanlikni pasaytirishi kuzatildi.

Samarqand viloyati sharoitida yetishtirilayotgan tritikale navlari urug'larining laboratoriya sharoitida unib chiqishi uchun qulay harorat 20⁰C bo'lib, saralangan urug'lar laboratoriyada 99,3-100% gacha, dala sharoitida navlarga mos holda 93,7% dan 96,7% gacha bo'lganligi hamda urug'larini 3,0-5,0 sm chuqurlikka ekilganda nisbatan yuqori unuvchanlik kuzatildi.

Tritikale urug'larining unuvchanligiga saxaroza eritmasining turli konsentratsiyasini ta'sirini o'rganish orqali laboratoriya sharoitida qurg'oqchilikka chidamlilik darajasi aniqlanganda nazorat (toza suv) variantda urug'lar 3-kundan unib chiqdi, 7-kunda urug'lar unuvchanligi barcha navlarda 100% bo'lganligi kuzatildi. Saxaroza eritmasining konsentratsiyasining ortib borishi tritikale navlari urug'larining unib chiqish quvvati va unuvchanligining pasayishiga olib keldi. Saxarozaning turli konsentratsiyali eritmalarida yuqori unuvchanlik Odissey navida kuzatildi. Odissey navida unuvchanlik saxarozaning 15,8% (14 atm) eritmasida 97,2%, 17,7% (16 atm) eritmasida 89,2%, 19,3% (18 atm) da 77,8%, 22,4% (22 atm) saxaroza eritmasida esa 54,6% bo'lganligi aniqlandi. Olib borilgan laboratoriya tadqiqotlari natijasiga ko'ra tritikalening Odissey va Tixon navlari urug'larining

unuvchanligi boshqa navlarga qaraganda qurg' oqchilikka nisbatan chidamli ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Tritikale navlarining unuvchanligiga qurg' oqchilikning ta'siri, %.

Navlar		Farxod	Odissey	Valentin	Svat	Tixon
Toza suv	A	91,4±1,9*	92,2±1,5	93,0±1,2	83,5±2,1	85,8±1,6
	B	100,0±0,0	100,0±0,0	100,0±0,0	100,0±0,0	100,0±0,0
10 atm	A	87,2±1,7	89,6±2,2	83,5±1,3	80,1±2,0	79,7±1,8
	B	99,0±0,5	100,0±0,0	98,5±0,8	97,2±1,0	98,1±0,8
14 atm	A	52,9±1,6	78,7±2,0	61,8±1,9	55,4±1,7	54,0±2,6
	B	91,6±1,3	97,2±1,0	93,2±1,8	78,7±2,2	89,3±1,4
16 atm	A	21,1±3,9	45,8±3,5	28,9±1,8	40,3±1,7	35,7±2,9
	B	60,8±0,9	89,2±1,6	65,0±2,2	81,9±1,2	79,7±1,3
18 atm	A	11,0±3,2	25,7±3,3	14,7±3,1	27,2±2,6	28,5±1,6
	B	46,7±1,0	77,8±2,0	47,6±2,1	54,8±1,5	61,1±1,7
22 atm	A	6,4±1,0	15,2±1,7	6,8±2,1	8,7±1,0	11,3±1,1
	B	19,8±1,7	54,6±2,2	28,2±2,3	32,7±1,0	40,4±1,6
Eslatma. A-unish quvvati, %; B-unuvchanlik, %; * P<0,05.						


Tritikale navlarining hosili yig'ishtirilgach, 3; 6; 9; 12; 15; 18 kun saqlangan urug'larning unish quvvati va unuvchanligi 20°C haroratda maxsus termostatda undirish orqali tinim davri o'rganildi. Samarqand viloyati sharoitida yetishtirilgan tritikale urug'larining tinim davri qisqa bo'lib, hosil yig'ishtirilgach, 15 kundan so'ng ularni laboratoriya va dalada ekish mumkin.

Tritikale navlarining to'liq vegetatsiya davrida ikki xil mo'tadil va qurg' oqchil sharoitda feneologik kuzatuvlar olib borildi. O'simliklarning o'sish sur'ati va o'rtacha balandligi dastlab urug'lar unib chiqqandan 30 kun o'tgach, ontogenez davomida 11 marta hamda vegetatsiya yakunida aniqlandi. Urug'lar unib chiqqandan so'ng 30 kundan so'ng birinchi marta o'simliklar balandligi aniqlanganda mo'tadil namlikda 1,4 sm dan 1,6 sm gacha yetdi, qurg' oqchil sharoitda esa 1,3 sm dan 1,5 sm gacha bo'lganligi aniqlandi. O'simlik bo'yining balandligi 3-marta (qishlovdan so'ng) 130 kundan so'ng aniqlanganda mo'tadil namlikda 5,2 sm (Tixon navida) dan 7,3 sm (Valentin navida) balandlikka ega bo'ldi. Tritikale navlarida nisbatan o'sishning jadalligi 7-marta o'simlik balandligi aniqlanganda 170 kunda (naychalash fazasida) kuzatildi, mo'tadil sharoitda 63,8 sm dan 81,1 sm gacha, qurg' oqchil sharoitda navlarning o'rtacha balandligi 60,5 sm dan 73,8 sm gacha bo'lganligi kuzatildi.

Vegetatsiya yakunida hosil yig'ib olishdan oldin o'simliklar balandligi aniqlanganda qurg' oqchil sharoitda o'suvchi tritikale navlarining balandligi mo'tadil sharoitda o'suvchi navlarga nisbatan pastroq bo'lishi aniqlandi. Vegetatsiya yakunida navlarning o'rtacha balandligi mo'tadil namlikda 105,2 sm dan 136,8 sm gacha, qurg' oqchil sharoitda navlarning o'rtacha balandligi 98,4 sm dan 118,3 sm ga yetganligi aniqlandi. Tritikale navlarini o'sish sur'ati o'rganilganda navlarining o'sish sur'ati unib chiqqandan to gullash fazasigacha ortib bordi, o'simliklar don hosil qilishi davomida esa o'sish sur'atining pasayib borishi aniqlandi. O'simliklarning vegetatsiya davomida eng jadal o'sish sur'ati mo'tadil

sharoitda 65-68%, qurg‘oqchil sharoitda 69-70% o‘sishi 150-190 kunlarda bo‘lganligi aniqlandi.


Mo‘tadil namlikda va qurg‘oqchil sharoitda ham Valentin navi bo‘yining nisbatan baland bo‘lishi, Tixon navida esa bo‘yining balandligi pastroq bo‘lishi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Tritikale navlari bo‘yining balandligi (vegetatsiya oxirida)

Umumiy vegetatsiya davri mo‘tadil sharoitda Farxod navida 246 kun, Odissey navida 250 kun, Valentin navida 258 kun, Svat navida 254 kun va Tixon navida 262 kun bo‘lganligi aniqlandi. Umumiy vegetatsiya davri qurg‘oqchil sharoitda Farxod navida 236 kun, Odissey navida 241 kun, Valentin navida 247 kun, Svat navida 245 kun va Tixon navida 251 kun bo‘lganligi aniqlandi. Samarqand viloyati sharoitida yetishtirilgan tritikale navlarining vegetatsiya davri o‘simlikning o‘sish sharoitiga va nam tanqisligi ta’sirida 9-11 kun qisqa bo‘lishi aniqlandi (2-rasm).

Dissertatsiyaning “**Tritikale navlarining suv almashinuv xususiyati**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida tritikale navlarining suv almashinuv xususiyatlari, ya’ni barglardagi suv miqdori, suv saqlash xususiyati, suv tanqisligi hamda transpiratsiya jadalligini baholash bo‘yicha olingan ma’lumotlar hamda ularning tahlili va bobga doir xulosalar keltirilgan.




2-rasm. Tritikale navlarining vegetatsiya davri.

Tritikale navlarining barglardagi suv miqdori mo‘tadil va qurg‘oqchil sharoitda o‘rganilganda, barglardagi suv miqdori kunning ertalabgi vaqtlarida yuqori bo‘ldi, kunning keyingi vaqtlarida soat 14 gacha suv miqdori kamayib bordi, kechki vaqtga borib esa suv miqdori tiklanib ortib bordi, bu holat barcha navlarda va rivojlanish fazalarda kuzatildi. Samarqand viloyati sharoitida yetishtirilgan tritikale navlarida barglardagi suv miqdori gullash fazasida nisbatan yuqori bo‘lishi mo‘tadil sharoitda 81,6% (Odissey navida) dan 83,7 % (Farxod navida) gacha, qurg‘oqchil sharoitda 79,6% (Odissey navida) dan 81,4 % (Valentin navida) ega bo‘ldi.

Tritikale Farxod navi barglaridagi kunlik o‘rtacha suv miqdorining rivojlanish fazalariga bog‘liq ravishda o‘zgarishi statistik tahlil qilinganda, ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘liqlik ifodalanishiga ko‘ra parabola shaklidaligi aniqlandi. Bog‘liqlikning regressiya tenglamasi umumiy tarzda $y = a+bx-cx^2$ ga bo‘ysinishi, determinatsiya koeffitsienti mo‘tadil sharoitda $R^2 = 0,68$, qurg‘oqchil sharoitda $R^2 = 0,78$, korrelyatsiya koeffitsienti esa mo‘tadil sharoitda $r = 0,82$, qurg‘oqchil sharoitda $r = 0,88$ ga tengligi aniqlandi (3-rasm).

Tahlil natijalariga ko‘ra, Farxod va boshqa navlarda ham o‘simlik barglaridagi kunlik o‘rtacha suv miqdori gullash fazasigacha ortib borishi va gullashdan keyingi fazalarda kamayishi hamda mo‘tadil sharoitda qurg‘oqchil sharoitdagiga qaraganda ko‘p miqdorda bo‘lishi muqarrarligi o‘z isbotini topdi.

Tritikale navlarining mo‘tadil va qurg‘oqchil sharoitda yetishtirilgan namunalariidagi suv saqlash xususiyati tahlil qilinganda, qurg‘oqchil sharoitda o‘sovchi o‘simliklarda suvni saqlash xususiyati biroz yuqori bo‘lishi kuzatildi (2-jadval).



3-rasm. Tritikale Farxod navi barglaridagi kunlik o‘rtacha suv miqdorining rivojlanish fazalariga bog‘liqligi, %.

2-jadval


**Tritikale navlarining barglardagi suvni saqlash xususiyati,
(to‘liq to‘yinishga nisbatan % hisobida)**

№	Navlar	Rivojlanish fazalari	Mo‘tadil		Qurg‘oqchil	
			Kunlik o‘rtacha (suvni saqlash %)	Kunlik o‘zgarish diapozon	Kunlik o‘rtacha (suvni saqlash %)	Kunlik o‘zgarish diapozon
1	Farxod	Tuplanish	15,4	6,3	14,1	4,7
2	Odissey		10,7	4,0	11,7	3,7
3	Valentin		13,4	5,8	15,2	5,7
4	Svat		14,1	6,3	13,6	4,7
5	Tixon		13,7	6,1	12,5	4,6
1	Farxod	Naychalash	17,4	6,3	17,1	7,0
2	Odissey		14,1	4,2	13,0	4,5
3	Valentin		15,6	5,9	17,8	7,2
4	Svat		16,6	6,1	15,8	6,7
5	Tixon		16,3	6,1	15,1	5,7
1	Farxod	Boshqash	19,5	7,4	17,9	6,1
2	Odissey		15,7	5,1	14,9	4,2
3	Valentin		17,5	6,5	19,3	7,2
4	Svat		18,4	6,9	17,0	6,3
5	Tixon		17,9	6,7	15,9	5,2
1	Farxod	Gullash	20,4	7,6	19,5	7,5
2	Odissey		17,6	6,5	16,3	6,3
3	Valentin		18,8	7,0	22,0	8,3
4	Svat		19,5	7,4	17,5	6,6
5	Tixon		18,8	7,1	16,8	6,4
1	Farxod	Don pishish	21,0	7,7	20,1	7,1
2	Odissey		17,9	6,2	16,3	6,0
3	Valentin		18,4	7,3	21,0	8,7
4	Svat		19,9	7,6	18,4	7,1
5	Tixon		19,1	7,6	17,6	6,5

Tuplanish fazasidan boshlab gullash fazasigacha tritikale navlarida suvni saqlash xususiyati pasayib borishi kuzatildi. Gullash fazasida kunlik o‘rtacha suvni saqlash xususiyatining yuqori ko‘rsatkichi mo‘tadil sharoitda Odissey navida (17,6%), qurg‘oqchil sharoitda esa Odissey (16,3%) va Tixon (16,8%) navlarida ekanligi kuzatildi, suvni saqlash xususiyatining nisbatan pastroq ko‘rsatkich mo‘tadil sharoitda Farxod navida (20,4%), qurg‘oqchil sharoitda Valentin navida (22,0%) kuzatildi.


Mo‘tadil va qurg‘oqchil sharoitda tritikale navlarining barglaridagi suv tanqisligi o‘rganildi. Olingan ma‘lumotlardan aniqlanishicha, tritikale navlarida suv tanqisligi ertalabki vaqtlardan soat 14 gacha ortib, so‘ngra kechki vaqtlargacha suvga tanqislik pasayib bordi. Bu qonuniyat barcha navlarda va fazalarda kuzatildi. Barglarda suv tanqisligi yuqori bo‘lgan vaqt soat 14 ga to‘g‘ri kelganligi aniqlandi. Tritikale navlarida eng kam suv tanqisligi bu tuplanish fazasida kuzatildi, eng ko‘p taqchillik esa gullash fazasida kuzatildi, don pishish fazasiga kelib esa pasayishi kuzatildi. Gullash fazada mo‘tadil sharoitda kunlik o‘rtacha suv tanqislik 9,9% (Odissey navida) dan 12,3% (Farxod navida) gacha bo‘lganligi, kunlik o‘zgarish diapozoni 6,5 dan 8,0 gacha bo‘lishi aniqlandi. Qurg‘oqchil sharoitda kunlik o‘rtacha suv taqchillik 10,4% (Odissey navida) dan 13,4% (Valentin navida) gacha bo‘ldi, kunlik o‘zgarish diapozoni 6,5 dan 7,4 gacha bo‘lishi kuzatildi. Qurg‘oqchil

sharoitda o'suvchi o'simliklarda mo'tadil sharoitga nisbatan taqchilik yuqori bo'lishi tajribamizda aniqlandi. Tritikalening Odissey va Tixon navlari boshqa navlarga nisbatan barcha rivojlanish fazalarida va kunning barcha vaqtida kamroq suv tanqisligiga uchrashi va qurg'oqchilikka nisbatan chidamli ekanligi aniqlandi (4-rasm).



4-rasm. Tritikale navlarining barglardagi suv tanqisligi, (to'liq to'yinishga nisbatan % hisobida)

Tadqiqotlarimizda tritikalening transpiratsiya jadalligi o'rganildi (5-rasm). Tritikale navlarida eng ko'p transpiratsiya bu gullash fazasida ekanligi aniqlandi. Mo'tadil sharoitda gullash fazasida transpiratsiya eng jadal boradigan vaqti soat 14 da bo'lishi kuzatildi. Bunga ko'ra, transpiratsiya jadalligi 326,4 g/m²soat dan 371,3 g/m² soatgacha bo'lishi aniqlandi. Gullash fazasida nisbatan sust transpiratsiya ertalabki soatlarda kuzatilib, 112,2 g/m² soat dan 133,3 g/m² soatgacha bo'lishi ma'lum bo'ldi. Kunlik o'rtacha transpiratsiya jadalligi yuqori bo'lishi Farxod navida (255,27 g/m² soat), transpiratsiya jadalligi nisbatan past bo'lgan ko'rsatkich Odissey navida (219,10 g/m² soat) qayd etildi. Qolgan navlar oraliq o'rinni egalladi.



5-rasm. Tritikale navlarining kunlik o'rtacha transpiratsiya jadalligi, g/m².soat.

Qurg'oqchil sharoitda mo'tadil sharoitga nisbatan tritikale navlarining barcha rivojlanish fazalarida transpiratsiya jadalligi biroz kam bo'lishi aniqlandi.


Qurg‘oqchil sharoitda gullash fazasida kunlik o‘rtacha transpiratsiya jadalligi 196,17 g/m² soat (Odyssey navida) dan 215,54 g/m² soat (Valentin navida) gacha bo‘lganligi aniqlandi. Qurg‘oqchil sharoitda barcha fazalarda hamda kunning barcha davrida tritikalening boshqa navlarga nisbatan Odessiy navida transpiratsiya jadalligi biroz kam bo‘lishi, Valentin navida esa bir oz jadalroq bo‘lishi ma‘lum bo‘ldi.

Qurg‘oqchil sharoitda o‘sgan o‘simliklar mo‘tadil sharoitda o‘sgan o‘simliklarga nisbatan suvdan unumli va tejamkorlik bilan foydalanishi natijasida transpiratsiya jadalligini pasayishi kuzatildi.

Dissertatsiyaning **“Tritikale navlarining fotosintetik faoliyati, mahsuldorlik va hosildorligi”** deb nomlangan beshinchi bobida tritikale navlarining fotosintetik faoliyati, ya‘ni barg sathining o‘zgarishi, quruq massa to‘plash dinamikasi, barglardagi pigmentlar miqdorining o‘zgarishi va fotosintez sof mahsuldorligi, navlarining mahsuldorlik hamda hosildorlik ko‘rsatkchlari bo‘yicha olingan ma‘lumotlar hamda ularning tahlili va bobga doir xulosalar keltirilgan.

Tritikale navlarida barg sathi hosil bo‘lish dinamikasini mo‘tadil va qurg‘oqchil sharoitda vegetatsiya davomida o‘zgarib borishi aniqlandi. Gullash fazasida tritikale navlarida umumiy barg sathi eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Mo‘tadil sharoitda gullash fazasida umumiy barg sathi 507,73 sm²/tup (Tixon navida) dan 753,15 sm²/tup (Valentin navida) gacha, qurg‘oqchil sharoitda esa 406,88 sm²/tup (Tixon navida) dan 607,21 sm²/tup (Valentin navida) bo‘lganligi ma‘lum bo‘ldi. Qurg‘oqchil sharoitda o‘stirilgan o‘simliklarda mo‘tadil sharoitga nisbatan barg sathining hosil bo‘lishi barcha o‘rganilgan navlarda kamayib borishi aniqlandi. Ikkala sharoitda ham Valentin navi qolgan navlarga nisbatan ko‘proq barg sathiga ega bo‘lishi kuzatildi.

Tadqiqotimizda tritikale navlarining rivojlanish fazalarida mo‘tadil va qurg‘oqchil sharoitda quruq modda hosil bo‘lishini o‘rgandik (6-rasm).



6-rasm. Tritikale navlarining quruq modda miqdori (g/tup, vegetatsiya yakunida).

Tritikale navlarida quruq modda hosil bo‘lishining eng yuqori ko‘rsatkichi naychalash fazasida kuzatildi. Mo‘tadil sharoitda naychalash fazasida navlarga mos

holda quruq modda miqdori 15,4 g/tupdan 18,9 g/tupgacha bo‘lganligi aniqlandi. Qurg‘oqchil sharoitda naychalash fazasida navlarda umumiy quruq modda miqdori 14,7 g/tupdan 18,0 g/tupgacha bo‘ldi. Tadqiqotlarimizda tritikale navlariga tuproqdagi suv miqdori darajasi umumiy organik modda hosil bo‘lishiga ta‘sir ko‘rsatishi aniqlandi. Vegetatsiya yakunida eng ko‘p organik modda to‘planishi mo‘tadil sharoitda Valentin navida (42,2 g/tup), qurg‘oqchil sharoitda Odissey navida (35,6 g/tup) bo‘ldi. Ikkala sharoitda ham nisbatan kam organik modda to‘planishi Svat navida kuzatildi, mo‘tadil sharoitda (35,4 g/tup), qurg‘oqchil sharoitda (31,1 g/tup) ekanligi aniqlandi.

Mo‘tadil va qurg‘oqchil sharoitda o‘sovchi tritikale navlarida barglardagi plastid pigmentlar miqdorining hosil bo‘lish dinamikasi rivojlanish fazalari davomida o‘zgarib borishi o‘rganildi (3-jadval).

3-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra tritikalening barglari (ho‘l) dagi plastid pigmentlar miqdori rivojlanishning turli fazalarida o‘zgarib bordi. Xlorofillar umumiy miqdori tuplanish fazasidan gullash fazasiga qadar ortib bordi, don pishish fazasida xlorofillar umumiy miqdori kamayib borishi kuzatildi. Tritikale navlarida xlorofill “ α ” ning miqdori xlorofill “ β ” ning miqdoriga nisbatan ortiq ekanligi aniqlandi. Karotinoid pigmentlar miqdori dastlabki fazadan, vegetatsiya davomida ortib borishi kuzatildi.

3-jadval

Tritikale navlari rivojlanishining turli davrlarida barglarda plastid pigmentlar miqdori, (mg/g)

Navlar	Fazalar	Mo‘tadil			Qurg‘oqchil		
		Xlorofillar		Karotinoidlar	Xlorofillar		Karotinoidlar
		α	β		α	β	
Farxod	Tuplanish	2,67±0,11	1,22±0,11	1,47±0,16	2,63±0,11	1,24±0,11	1,49±0,14
Odissey		2,91±0,14	1,25±0,10	1,49±0,14	2,85±0,08	1,27±0,11	1,52±0,12
Valentin		2,82±0,11	1,27±0,12	1,52±0,17	2,77±0,14	1,22±0,09	1,55±0,11
Svat		2,72±0,13	1,24±0,09	1,46±0,14	2,70±0,14	1,23±0,09	1,51±0,14
Tixon		2,84±0,13	1,28±0,10	1,54±0,14	2,81±0,14	1,25±0,11	1,57±0,13
Farxod	Naychalash	2,93±0,07	1,33±0,12	1,55±0,17	2,85±0,10	1,29±0,11	1,61±0,15
Odissey		3,12±0,19	1,36±0,13	1,56±0,17	2,98±0,13	1,38±0,14	1,64±0,09
Valentin		3,08±0,15	1,35±0,12	1,58±0,14	2,88±0,17	1,34±0,12	1,68±0,08
Svat		2,92±0,14	1,30±0,10	1,57±0,17	2,92±0,13	1,30±0,10	1,57±0,13
Tixon		3,04±0,20	1,34±0,09	1,61±0,10	2,95±0,15	1,35±0,12	1,61±0,12
Farxod	Boshog‘lash	3,19±0,11	1,42±0,11	1,62±0,18	3,09±0,06	1,42±0,10	1,75±0,18
Odissey		3,35±0,18	1,47±0,15	1,65±0,16	3,27±0,18	1,45±0,14	1,87±0,08
Valentin		3,32±0,16	1,46±0,11	1,66±0,07	3,12±0,23	1,46±0,10	1,81±0,17
Svat		3,25±0,15	1,44±0,13	1,64±0,11	3,22±0,16	1,42±0,12	1,87±0,11
Tixon		3,29±0,18	1,47±0,16	1,64±0,11	3,25±0,18	1,47±0,13	1,84±0,11
Farxod	Gullash	3,21±0,11	1,46±0,14	1,73±0,15	3,15±0,09	1,49±0,14	1,96±0,11
Odissey		3,39±0,17	1,53±0,16	1,77±0,16	3,32±0,16	1,48±0,13	1,98±0,13
Valentin		3,35±0,18	1,51±0,14	1,76±0,12	3,11±0,23	1,44±0,14	1,87±0,13
Svat		3,27±0,17	1,49±0,14	1,73±0,07	3,25±0,20	1,45±0,13	1,97±0,12
Tixon		3,33±0,16	1,51±0,08	1,75±0,14	3,29±0,15	1,50±0,10	1,95±0,13
Farxod	Don pishish	2,81±0,18	1,32±0,12	1,85±0,17	2,76±0,15	1,39±0,13	2,08±0,15
Odissey		2,99±0,15	1,41±0,12	1,89±0,15	2,93±0,14	1,35±0,11	2,12±0,14
Valentin		2,95±0,14	1,39±0,11	1,84±0,06	2,72±0,13	1,32±0,10	2,01±0,19
Svat		2,89±0,15	1,36±0,10	1,82±0,07	2,86±0,13	1,36±0,10	2,11±0,16
Tixon		2,92±0,15	1,39±0,06	1,84±0,09	2,89±0,15	1,39±0,09	2,10±0,16

Mo‘tadil sharoitda gullash fazasida xlorofillar umumiy miqdori nisbatan yuqori bo‘lishi aniqlandi. Xlorofill “ α ” ning miqdori navlarga mos holda 3,21 mg/g dan


3,39 mg/g gacha bo‘lganligi ma’lum bo‘ldi. Bu fazada xlorofill “β” ning miqdori 1,46 mg/g dan 1,53 mg/g gacha bo‘lganligi kuzatildi. Karotinoidlar miqdori tahlil qilinganda, gullash fazasida pigment miqdori 1,73 mg/g dan 1,77 mg/g gacha bo‘lishi aniqlandi.

Qurg‘oqchil sharoitda (3-jadval) gullash fazasida xlorofill “α” ning miqdori 3,11 mg/g dan 3,32 mg/g ni tashkil etdi, xlorofill “β” ning miqdori 1,44 mg/g dan 1,50 mg/g gacha bo‘lganligi kuzatildi. Karotinoidlar miqdori tahlil qilinganda gullash fazasida pigment miqdori 1,87 mg/g dan 1,98 mg/g gacha bo‘lishi aniqlandi.

Mo‘tadil sharoitda xlorofill “α” va “β” ning umumiy miqdori qurg‘oqchil sharoitra nisbatan o‘rganilgan barcha navlarda biroz ziyodroq bo‘ldi, ammo karotinoidlar miqdori qurg‘oqchil sharoitda o‘sovchi navlarda yuqori ekanligi kuzatildi. Mo‘tadil va qurg‘oqchil sharoitda Odissey navida plastid pigmentlarning umumiy miqdori boshqa navlarga nisbatan yuqori bo‘lishi aniqlandi.

Fotosintez sof mahsuldorligi-bu ekinzorning fotosintetik faoliyatini belgilab beruvchi muhim fiziologik jarayondir. Tadqiqotlarimizda tritikale navlarining rivojlanish fazalarida fotosintez sof mahsuldorligini ikki xil sharoitda (mo‘tadil va qurg‘oqchil) o‘rgandik.

Tritikalening barcha navlarida ikkala sharoitda ham tuplanish fazasidan gullash fazasigacha fotosintez sof mahsuldorlik ortib bordi, don pishish fazasida fotosintez sof mahsuldorligining pasayishi kuzatildi. Tritikale navlarida fotosintez sof mahsuldorligi gullash fazasida eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Mo‘tadil sharoitda gullash fazasida Odissey navida 9,51 g/m².sutka ni tashkil qilgan bo‘lsa, Farxod navida 8,30 g/m².sutkaga teng ekanligi aniqlandi. Qolgan navlar oraliq o‘rinni egalladi (7-rasm).



7-rasm. Tritikale navlarining fotosintez sof mahsuldorligi (g/m² sutka).

Gullash fazasida qurg‘oqchil sharoitda fotosintez sof mahsuldorligining nisbatan kamroq bo‘lishi Valentin navida 7,55 g/m².sutka ni tashkil qilgan bo‘lsa,

navlar orasida yuqori ko'rsatkich Odissey navida 8,01 g/m².sutkaga teng bo'lganligi aniqlandi.

Mo'tadil sharoitda yetishtirilgan tritikale navlarining fotosintez sof mahsuldorligi qurg'oqchil sharoitdagiga nisbatan barcha fazalarda biroz ziyodroq bo'lishi kuzatildi. Mo'tadil sharoitda barcha fazalarda Odissey va Valentin navlarida, qurg'oqchil sharoitda barcha fazalarda Odissey va boshqoqlash hamda keying fazalarda Tixon navlarida fotosintez sof mahsuldorligi yuqori bo'lishi aniqlandi.

Tadqiqotlarimizda tritikale navlarining mahsuldorlik ko'rsatkichlari hamda hosildorligi mo'tadil va qurg'oqchil sharoitda o'rgandik (4-jadval).

Samarqand viloyati sharoitida o'stirilgan tritikale navlarining boshqoq uzunligi mo'tadil sharoitda 12,6 sm dan 14,5 sm gacha, qurg'oqchil sharoitda 12,3 sm dan 14,0 sm gacha bo'lishi, boshqodagi donlar soni mo'tadil sharoitda 50,7 donadan 60,3 donagacha, qurg'oqchil sharoitda esa 48,7 donadan 57,5 donagacha ekanligi, bir boshqodagi don massasi 2,2 g dan 2,7 g ga teng ekanligi, 1000 dona don massasi mo'tadil sharoitda 43,7-50,8 g oralig'ida, qurg'oqchil sharoitda 42,1-48,2 g oralig'ida bo'lganligi aniqlandi.

4-jadval

Navlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlari

Navlar	Boshqoq uzunligi (sm)		Boshqodagi donlar soni		Bir boshqodagi don massasi (g)		1000 dona don massasi (g)	
	M	Q	M	Q	M	Q	M	Q
Farxod	13,8±0,38	13,2±0,52	54,7±2,9	51,5±2,4	2,4±0,04	2,2±0,11	45,6±1,01	43,5±1,21
Odissey	14,5±0,60	14,0±0,56	60,3±2,1	57,5±2,4	2,7±0,14	2,5±0,10	47,5±1,16	45,3±1,14
Valentin	13,8±0,48	13,0±0,58	57,4±2,5	52,6±3,0	2,5±0,11	2,2±0,11	43,7±1,19	42,1±1,27
Svat	13,4±0,50	13,0±0,63	51,5±2,4	49,3±2,5	2,4±0,07	2,3±0,11	46,7±1,12	43,9±1,13
Tixon	12,6±0,52	12,3±0,58	50,7±2,4	48,7±2,6	2,5±0,10	2,4±0,08	50,8±1,21	48,2±1,31
M-mo'tadil, Q-qurg'oqchil, * P<0,05.								

O'rganilgan tritikale navlari ichida boshqoq'ining uzunligi, bir boshqodagi donlar soni va bir boshqodagi don massasi bo'yicha Odissey navida eng yuqori ko'rsatkich bo'lgan bo'lsa, 1000 ta don massasi bo'yicha Tixon navi yetakchilik qildi.

Tajribamizda ikki xil mo'tadil namlik va qurg'oqchil sharoitda tritikale navlarining hosildorligi aniqlandi. Tritikale navlarida o'rtacha hosildorlik mo'tadil sharoitda 80,80 s/ga (Farxod navida) dan 107,07 s/ga (Odissey navida) ga teng ekanligi, qurg'oqchil sharoitda 67,17 s/ga (Valentin navida) dan 87,40 s/ga (Odissey navida) bo'lganligi aniqlandi (5-jadval).

5-jadval

Tritikale navlarining don hosil miqdori, s/g

Navlar	2022	2023	2024	O'rtacha
Mo'tadil sharoit				
Farxod	77,40±3,4	84,80±3,7	80,20±3,8	80,80
Odissey	106,20±2,4	108,63±2,3	106,38±2,1	107,07
Valentin	85,30±1,4	91,20±1,2	92,50±2,2	89,67
Svat	83,70±1,19	86,50±1,78	84,60±2,89	84,93
Tixon	81,30±2,41	86,10±0,61	94,60±0,55	87,33
<i>Sx%</i>	2,19	1,66	2,08	
<i>EKF_{0,5}</i>	4,87	3,90	4,90	
Qurg'oqchil sharoit				
Farxod	67,31±2,6	73,50±2,8	72,10±2,2	70,97
Odissey	84,51±2,0	87,50±2,1	90,13±2,1	87,40
Valentin	65,50±1,50	70,90±1,28	65,10±2,63	67,17
Svat	72,60±2,75	76,40±2,62	75,11±2,84	74,70
Tixon	78,40±0,93	82,20±0,90	81,51±2,88	80,70
<i>Sx%</i>	2,69	2,13	2,25	
<i>EKF_{0,5}</i>	5,09	4,27	4,44	

Tritikale navlari orasida “Odissey” va “Tixon” navlarining urug‘larini qurg‘oqchilikka chidamli ekanligi, suvni saqlash xususiyati kuchliligi, mustahkam pigmentlar tizimi va organik modda to‘plash qobiliyati yuqoriligi bilan farq qildi. Bu ko‘rsatkichlar qurg‘oqchilikka chidamlilikning fiziologik xususiyatini tavsiflaydi. “Valentin” navi esa suv ta’siriga eng sezgir ekanligi ma’lum bo‘ldi.

XULOSALAR

“Tritikale (*Triticosecale*) navlarini qurg‘oqchilikka chidamliligining fiziologik asoslari” mavzusidagi biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Tritikale urug‘larining tinim davri 15 kun bo‘lib, hosili yig‘ishtirilgach, 15-kundan boshlab urug‘larning unuvchanligi yuqori bo‘ladi, urug‘larning laboratoriya sharoitida unishi uchun eng optimal harorat 20°C bo‘lib, 20°C da unuvchanlik 99,3-100,0%ga teng bo‘ladi.

2. Tritikale urug‘lari dala sharoitida 3,0-5,0 sm (unuvchanlik navlarga mos holda 93,7% dan 96,7% gacha) chuqurlikda dala unuvchanligi yuqori bo‘lishini ta’minlaydi.

3. Laboratoriya tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, tritikalening “Odissey” va “Tixon” navlari urug‘larining unuvchanligi boshqa navlarga qaraganda qurg‘oqchilikka nisbatan chidamli ekanligi aniqlandi.

4. Qurg‘oqchilik ta’sirida tritikale navlarining vegetatsiya davri 9-11 kunga qisqarganligi aniqlandi. Tritikale navlarining eng jadal o‘sishi unib chiqqanidan 150-190-kunlari sodir bo‘ladi. Mo‘tadil sharoitda navlarga mos holda o‘simliklarining balandligi 105,2 sm dan 136,8 sm gacha, qurg‘oqchil sharoitda o‘simliklarining balandligi 98,4 sm dan 118,3 sm gacha bo‘lishi kuzatildi.

5. Samarqand viloyati sharoitida yetishtirilayotgan tritikalening suv almashinuv xususiyatlari kun davomida o'zgarib, Odissey va Tixon navlari nisbatan qurg'ochilikka chidamli ekanligi ma'lum bo'ldi.

6. Tritikale navlarining barglardagi xlorofill α va β pigmentlar miqdori mo'tadil sharoitda gullash fazasida 4,67-4,92 mg/g, qurg'ochil sharoitda 4,55-4,80 mg/g va fotosintezning sof mahsuldorligi mo'tadil sharoitda gullash fazasida 8,30-9,51 g/m².sutka, qurg'ochil sharoitda 7,55-8,01 g/m².sutka bo'lishi aniqlandi. Navlarning fotosintetik faoliyati nam tanqisligiga bog'liq bo'lib, mo'tadil sharoitda Odessiy va Valentin navlarida, qurg'ochil sharoitda Odissey va Tixon navlarida fotosintetik ko'rsatkichlar eng yuqori bo'lishi aniqlandi.

7. Samarqand viloyati sharoitida yetishtirilayotgan tritikalening hosildorligi gektaridan mo'tadil sharoitda 80,80 sentner (Farxod navida)dan 107,07 sentner (Odissey navida) gacha, qurg'ochil sharoitda 67,17 sentner (Valentin navida) dan 87,40 sentner (Odissey navida) ni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.В.02.08 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

УСМАНОВА МАХЛИЕ ИБАДУЛЛАЕВНА

**ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЗАСУХОУСТОЙЧИВОСТИ
СОРТОВ ТРИТИКАЛЕ (*TRITICOSECALE*)**

03.00.07 – Физиология и биохимия растений

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/B832.

Диссертационная работа выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель:

Ходжаев Джуракул Ходжаевич
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Джаббаров Иброхим Шодманович
доктор биологических наук, профессор

Халилов Насриддин
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Ведущая организация:

Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится «14» марта 2025 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного Совета PhD.03/30.12.2019.B.02.08 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Актовый зал института биохимии Самаркандского государственного университета. Тел.: (+99866) 239-11-40, факс (+99866) 239-11-51, E-mail: devonxona@samdu.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрированной за № 18). Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Центр информационных ресурсов Тел.: (999866) 239-11-51.

Автореферат диссертации разослан: «28» февраля 2025 года.
(Протокол реестра рассылки № «17» от 28 февраля 2025 года).



Т.Ф.Ражабов
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней, д.б.н.

М.С.Кузиев
Ученый секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней,
(PhD), доцент

Х.К.Хайдаров
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёных степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время стремительный рост численности населения в мире приводит к увеличению их глобального спроса на продовольствие. В результате значительно возрастает потребность в использовании растительных продуктов. В этом отношении особое внимание не уделялось оценке физиологических и биохимических свойств новых видов растений с высокой урожайностью и питательной ценностью, а также их внедрению в практику в засушливых и вододефицитных районах. Исследования, проводимые в данном направлении, рассматриваются как решение важнейших приоритетных задач. В связи с этим исследования, направленные на выращивание качественных, малозатратных и экологически чистых продуктов питания в сельском хозяйстве, являются одной из актуальных проблем современности.

В результате глобального изменения климата в мире проводятся научные исследования, направленные на определение засухоустойчивости видов растений в агроценозах, изучение роста и развития зерновых культур в условиях недостатка влаги, а также выявление их морфобиологических, экологических, физиологических и фитохимических характеристик с целью повышения устойчивости к засухе. В этом направлении особое внимание уделяется повышению адаптационных свойств перспективных злаковых культур, обладающих уникальной устойчивостью к различным стрессовым факторам, ускорению их роста и развития, изучению динамики вегетационных периодов, химического состава зерна, повышению урожайности в условиях дефицита влаги, созданию семеноводческой базы растений, их размножению и выращиванию в различных экологических условиях, а также выведению и внедрению перспективных засухоустойчивых сортов

В условиях почвенно-климатических условий нашей республики особое внимание уделяется совершенствованию физиологических и агротехнических мероприятий по выращиванию тритикале, разработке биофизиологических основ выращивания засухоустойчивых сортов, выявлению сортов, адаптированных к стрессовым факторам, а также разработке и внедрению агротехнических мер, обеспечивающих оптимальные темпы роста и развития в засоленных и засушливых почвенных условиях. В этом направлении уже достигнуты определённые результаты. В связи с этим, в частности, в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы поставлены отдельные задачи по «...стимулированию научно-исследовательской и инновационной деятельности, созданию эффективных механизмов внедрения научных и инновационных достижений в производство»². В целях реализации этих задач обеспечение населения высококачественными продуктами питания, разработка эффективных методов повышения урожайности за счет научного обоснования методов изучения и внедрения новых сортов растений,

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 “О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы”

устойчивых к неблагоприятным факторам имеют важное научное и практическое значение.

